



## QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOG‘INING MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

*G‘aybullayev Jasurbek Lutfullo o‘g‘li*

*TDTU ning Yurisprudensiya*

*(xalqaro transport huquqi) yo‘nalishi talabasi*

*Akbarova Laylo Upashevna - ilmiy rahbar*

*Transport iqtisodiyoti kafedrasи katta o‘qituvchisi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rni ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, bu sohani rivojlantirish bo‘yicha Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qarorlarga ham to‘htalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, qishloq xo‘jaligi sohasining rivojlanishi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining yirik tarmoqlaridan biri qishloq xo‘jaligi hisoblanadi. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi sohasining mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida ham salmoqli o‘rin egallagan. Mamlakat YaIM umumiy hajmining 26-30% shu tarmoqning ulushiga tog‘ri keladi. Mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun zarur bo‘lgan erkin harakatdagi qattiq valyuta tushumining yarmidan ko‘prog‘I shu tarmoq mahsulotlarini eksport qilishdan olinadi. Aholining yarmidan ko‘proq qismi qishloqlarda yashaydi. Xalqimizning turmush darajasi, inson resurslarining katta bir qismini ish bilan ta‘minlashi qishloq xo‘jaligi bilan bo‘gliq. Bugungi kunda iqtisodiyotda band bo‘lgan mehnat resurslarining 28% dan ko‘prog‘I qishloq va o‘rmon xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatadi. Shu sababli ham qishloq xo‘jaligi sohasiga bo‘lgan e’tibor keying yillarda katta bo‘lmoqda O‘zbekiston Markaziy Osiyoning qulay xududida joylashgan. Uning hududida azaldan insoniyat uchun nihoyatda kerakli hisoblangan turli xildagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarildi. Chunki bu hududda tabiiy iqlim sharoiti yetarlidir. Jumladan, Respublikada yillik samarali temperature 26-30° ni tashkil etib, quyoshli soat 3600 dan ortiq bo‘lib, bir yilda bir necha marta hosil olish imkonini beradi. Mustaqillik yillarida olib borilgan islohotlar natijasida O‘zbekiston Respublikasi dinamik holda rivojlanib borayotgan murakkab iqtisodiy tizimga ega bo‘ldi. Qishloq xo‘jaligi Respublika iqtisodiyotining yirik va muhim tarmog‘I sifatida saqlanib qoldi. Qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston xalqlarining eng qadimdan shug‘illangan asosiy sohalaridan biri bo‘lib, bir necha ming yilliklardan asta sekin rivoj topib kelmoqda. Respublika



hududida avvalo chorvachilik keyinchalik dehqonchilik madaniyati tarkib topdi. Qishloq xo‘jaligining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rni keying yillarda keskin rivojlanib bormoqda. Qishloq xo‘jaligi moddiy ishlab chiqarishning asosiy va eng qadimgi tarmoqlaridan biri bo‘lib aholiga oziq ovqat mahsulotlari va sanoat uchun xomashyoning asosiy qismini yetkazib beradi. Bugungi kunda mamlakat yengil va to‘qimachilik sanoatida ishlatilayotgan tolanning 60%daan ortig‘rog‘i o‘zimizda ishlab chiqarilgan paxta tolasidir. Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan qishloq xo‘jaligining rivojlanish darajasiga bog‘liq. Chunki qishloq xo‘jaligi mamlakatimiz uchun ham siyosiy, ham iqtisodiy ijtimoiy ahamiyat kasb etgan soha bo‘lib, u quyidagi funksiyani bajaradi:

- Mamlakatimiz oziq ovqat fondini shakllantiradi;
- Yurtimizning oziq-ovqat sohasidagi mustaqilligini ta’minlaydi;
- Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan sanoat uchun hom ashyo yetkazib beradi;
- Aholini ish joylari bilan ta’minlaydi;

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini isloh qilish va bozor mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Davlat narxlari qariyb 3 barobarga ko‘tarilganligi natijasida manfaatdorlik oshdi. Paxtachilik va g‘allachilik chinakam daromad manbaiga aylandi. Yangi texnika va innovatsiyalarni jopriy qilish, mehnat unumdorligini va ish haqini oshirish maqsadida 76 ta paxta-to‘qimachilik klasterlari tashkil etildi. Joriy yilning o‘zida 25 ming hektar paxta maydonlarida suv tejovchi yangi sug‘orish tizimi joriy qilindi. Jahon suv resurslari institute tahminlariga ko‘ra 2040-yilga borib O‘zbekiston suvi o‘ta tanqis bo‘lgan 33 mamlakatlar qatoridan joy olishi mumkin. Shu bois, davlatimiz rahbari.....? bu masalaga etibor qaratib, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va uni hisobini yuritish, har yili 200 ming hektar maydonda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilib boorish zarurligi takidlandi. Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining ko‘rsatkichlariga kelsak, Yurtimizda 2019-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o‘sish sur’ati 2018-yilga nisbatan 102,5 foizni tashkil etdi. Umuman olganda 2021-2022-yillarda qishloq xo‘jaligida yalpi mahsulot ishlab chiqarish 2,5 baravarga va aholi jon boshiga 2,4 baravarga oshdi. Shu bilan birga, o‘simliklarni yetishtrish 1,3 baravar, chorvachilik mahsulotlari 1,7 baravar o‘sdi. Yurtimizda ushbu soha rivoji uchun Vazirlar mahkamasi tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarga to‘htalib o‘tsak: Vazirlar mahkamasi tomonidan 2021-yil 26-fevralda „Qishloq xo‘jaligi sohasida statistik ma’lumotlar bazasini kengaytirish va takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”



qaror qabul qilindi. Qarorga muvofiq qishloq xo‘jaligi sohasida ro‘yhatdan o‘tkazish jarayoni 3 bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich 2022-2024-uillarni o‘z ichiga oladi.

2-bosqich 2024-yilda amalga oshirilib, bevosita qishloq xo‘jaligi sohasida ro‘yhatdan o‘tkazish tadbiri bajariladi, ya’ni qishloq xo‘jaligi faoliyati to‘g‘risidagi birlamchi ma’lumotlar yig‘iladi.

3-bosqich 2024-2026-yillarda amalga oshiriladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi „O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5853-son Farmoni.
2. Nurmatov N.J., Ro‘ziyev O.A., „Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti”
3. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti Nurmatov.N.J., Ro‘ziyev O.A., Gulmatov J.Q., Berdiyev S.R. “Tafakkur” nashriyoti Toshkent 2011
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

### **Elektron manbalar:**

1. [www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)
2. [www.ttesi.uz](http://www.ttesi.uz)
3. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
4. [www.norma.uz](http://www.norma.uz)
5. [www.Uzreport.uz](http://www.Uzreport.uz)
6. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)